<i>Омандавлатов Сирожиддин Содикович</i>	
ZAHAHLI CHIQINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	924
<i>Ruziyeva Iroda Davutovna, Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna</i>	



ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ VANET ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ.....	930
Лазарев Амир Пишембаевич, Шахобиддинов Алишер Шопатхиддинович	
STRENGTHENING THE FINANCIAL RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION.....	938
Dilnoza Xaitboyeva	
SHAHAR INFRATUZILMASIDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR UCHUN TO'SIQSIZ MUHITNI TASHKIL ETISHDA XALQARO YONDASHUVLAR	941
Karimova Laziza Jaxongir qizi	
BANK RISKLARINI BOSHQARISHDA RISK-APPETIT TUSHUNCHASI VA UNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	946
O'ktamova Nozima Narzulla qizi, Mirzaraximova Nurhayot Bahrom qizi	
O'ZBEKISTONDA MILLIY TAOMLARNING TURISTLAR SAYOHAT MOTIVATSIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	950
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TURLARINI TRANSFORMATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH CHEGARALARINI TIZIMLI TAHLIL ASOSIDA ANIQLASH USLUBIYOTLARI	956
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI HISOBLASHDA KUZATUV QAMROVI, MA'LUMOTLAR MANBALARI VA VAZNLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	964
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL I	969
Tog'ayeva Dildora Akramovna	
AUDIT ISHI SIFATINI BAHOLASHDA XALQARO STANDARTLARDAN FOYDALANISH	976
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ И ЗАРЯДНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА	981
Абдурашидов Искандарбек Журъат угли, Ибрахимов Каримжон Исмаилович, Таджикибаев Абдунаби Абдурахмонович, Абдурашидов Сардор Журъат угли	
STUDY OF THE HYDROLYTIC ACTIVITY OF CELLULASE ENZYME PREPARATIONS ON COTTON FIBER.....	990
Nazarov Kamoljon, Valixodjayeva Ziyoda, Soatov Askarali	
KATTA MA'LUMOTLAR (BIG DATA) VA ULARNING AXBOROT TIZIMLARIDAGI QO'LLANILISHI.....	994
Abdullayev Jahongir Shuxrat o'g'li	
AGRAR SOHADA MOLIYALASHTIRISH TIZIMIDA XUSUSIY INVESTITSIYALAR VA KREDIT O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING AHAMIYATI.....	998
S. J. Yangiboev	
THE ROLE OF SUPERPLASTICIZERS IN REDUCING WATER DEMAND AND ELIMINATING EXTERNAL CURING IN CONCRETE.....	1005
Shakirov Tuygunjon Turgunovich, Umarov Khotamjon Atamjonovich	
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	1010
Айтымбетов Султанбек Дуйсенбаевич	
DOLOTA DETALIGA QO'SHIMCHA ISHLOV BERIB RESURSINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1016
Qosimov Karimjon, Qodirov Nazirjon Ulug'bekovich, Yusupov Asrorbek Rafiqjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI TA'MINLASHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING ROLI.....	1019
Eshpo'latova Hilola Bozorboy qizi	



MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA “ISO 9001:2015” VA “ISO/IEC 17025:2017” STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH	1025
--	------

Mamajonov Abduvoxid Abduraxmonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjon o'g'li



MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA “ISO 9001:2015” VA “ISO/IEC 17025:2017” STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH

Mamajonov Abduvohid Abduraxmonovich

Andijon davlat texnika instituti, dotsent

E-mail: abduvohid.mamjonov@mail.ru

Abdujabborov Obidjon Oribjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti, PhD tayanch doktoranti

E-mail: abdujabborovobidjon@gmail.com

ORCID: [0000-0003-2393-9021](https://orcid.org/0000-0003-2393-9021)

Science ID: MAN-0226-0037

Annotatsiya. Ushbu maqolada ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 xalqaro standartlari talablarining laboratoriya sharoitida joriy etilish darajasini baholash uchun “Microsoft Access” dasturi asosida yaratilgan qaror qabul qilish tizimini ishlab chiqish masalasi yoritilgan. Taklif etilgan tizim ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlari bandlarini laboratoriya faoliyatiga mos ko'rsatkichlarga ajratish, har bir ko'rsatkich bo'yicha 0–10 ballik baholashni amalga oshirish, dalillarni qayd etish, bo'limlar kesimida o'rtacha ball va ularga mos foizlarni hisoblash hamda past baholangan bandlarni avtomatik aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, past baholangan bandlar bo'yicha tizim kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar va xavf-xatarlarni ajratib ko'rsatadigan tahlilni amalga oshiradi hamda mas'ul shaxs va bajarilish muddati ko'rsatilgan takomillashtirish rejalarini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: ISO 9001:2015, ISO/IEC 17025:2017, laboratoriya, “Microsoft Access”, qaror qabul qilish tizimi, ichki tekshiruv, SWOT tahlili (kuchli va zaif tomonlar), sifatni boshqarish tizimi, laboratoriya sifat menejmenti tizimi (LSMT), CAPA (Corrective and Preventive Action — to'g'rilovchi va oldini oluvchi harakatlar).

Abstract. This article addresses the development of a decision-making system based on Microsoft Access for assessing the level of implementation of ISO 9001:2015 and ISO/IEC 17025:2017 international standards in laboratory conditions. The proposed system enables the decomposition of standard clauses into laboratory-specific indicators, scoring each indicator on a 0–10 scale, recording evidence, calculating average scores and corresponding percentages across sections, and automatically identifying low-scoring clauses. In addition, the system provides analytical tools to identify strengths, weaknesses, opportunities, and threats (SWOT), and supports the formation of improvement plans specifying responsible persons and deadlines.

Keywords: ISO 9001:2015, ISO/IEC 17025:2017, laboratory, Microsoft Access, decision-making system, internal audit, SWOT analysis, quality management system, laboratory quality management system (LQMS), CAPA (Corrective and Preventive Action).

Аннотация. В данной статье рассматривается разработка системы поддержки принятия решений на базе Microsoft Access для оценки уровня внедрения международных стандартов ISO 9001:2015 и ISO/IEC 17025:2017 в лабораторных условиях. Предлагаемая система позволяет декомпозировать требования стандартов на показатели, адаптированные к деятельности лаборатории, осуществлять оценку каждого показателя по шкале от 0 до 10 баллов, фиксировать доказательства, рассчитывать средние баллы и соответствующие проценты по разделам, а также автоматически выявлять показатели с низкими оценками. Кроме того, система обеспечивает проведение анализа сильных и слабых сторон, возможностей и угроз (SWOT), а также формирование планов улучшения с указанием ответственных лиц и сроков исполнения.

Ключевые слова: ISO 9001:2015, ISO/IEC 17025:2017, лаборатория, Microsoft Access, система поддержки принятия решений, внутренний аудит, SWOT-анализ, система менеджмента качества, система менеджмента качества лаборатории (LQMS), CAPA (корректирующие и предупреждающие действия).

KIRISH

ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlari laboratoriya sifat menejmenti tizimining poydevorini tashkil etib, jarayonlar barqarorligi hamda natijalar ishonchligini ta'minlash uchun aniq talablarni belgilaydi [1–3]. Zamonaviy laboratoriya sifat menejmenti konsepsiyasi 12 ta “sifat tizimining asosiy qoidalari” va xavfga asoslangan fikrlash tamoyillariga tayangan holda menejment hamda texnik jarayonlarni yagona tizim doirasida boshqarishni talab etadi [4].

Amaliyotda ko'plab laboratoriyalar ushbu talablarni qog'oz hujjatlar yoki oddiy elektron jadvallar orqali kuzatadi. Natijada, standart bandleari bo'yicha tayyorgarlik darajasini real vaqt rejimida baholash, zaif jihatlarni aniqlash hamda qaror qabul qilish uchun vizual analitik hisobotlar tayyorlash jarayoni katta mehnat talab qiladi. Shu munosabat bilan laboratoriyalarda ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlarini joriy etilish darajasini baholash hamda rahbariyat uchun qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi Microsoft Access asosidagi axborot tizimini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi [7].

ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlarini laboratoriya sharoitida joriy etilish darajasini baholash uchun Microsoft Access asosida qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini (DSS) ishlab chiqish ushbu standartlarning asosiy tamoyillari va talablarini integratsiyalashtirish holda qo'llashni talab etadi. Kalibrlash va sinov laboratoriyalari uchun xalqaro etalon hisoblangan ISO/IEC 17025:2017 standarti laboratoriya kompetentligini oshirish, faoliyatga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda aniq va ishonchli natijalarni ta'minlashga qaratilgan [5,6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Laboratoriya sifat menejmenti.

So'nggi yillarda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlarda laboratoriya sifat menejmenti tizimi (LSMT)ning asosiy elementlari — hujjatlarni boshqarish, xodimlar kompetensiyasi, uskunalar boshqaruvi, ichki nazorat, audit hamda rahbariyat tomonidan ko'rib chiqish jarayonlari — batafsil yoritilgan [8]. Xalqaro qo'llanmalarda laboratoriya jarayonlarini standartlashtirish, xavflarni identifikatsiya qilish va ko'rsatkichlar asosida monitoring olib borish muhim shart sifatida qayd etiladi.

ISO 9001 va ISO/IEC 17025 integratsiyasi.

Laboratoriyalar uchun ISO 9001 va ISO/IEC 17025 standartlarini integratsiyalashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ushbu yondashuv hujjatlar takrorlanishini kamaytirishi, audit yuklamasini yengillashtirishi hamda laboratoriya rivoji uchun barqaror boshqaruv platformasini yaratishi ta'kidlangan. Turli yo'nalishdagi sinov laboratoriyalarida ISO/IEC 17025:2017 standartini joriy etish tajribasi shuni ko'rsatadiki, standart talablarini amaliyotga tatbiq etishda jarayonlarni hujjatlashtirish, xodimlar kompetentligini tasdiqlash va o'lchashlarning izchilligini ta'minlash eng ko'p resurs talab qiladigan yo'nalishlar hisoblanadi. Integratsiyalashtirish tizimida ISO 9001 ning jarayon yondashuvi va ISO/IEC 17025 ning texnik kompetentlik talablarini birgalikda boshqarish laboratoriya rahbariyati uchun strategik qaror qabul qilishni sezilarli darajada osonlashtiradi [9].

Laboratoriya uchun qaror qabul qilish tizimlari.

Klinik laboratoriyalar misolida qo'llanilayotgan qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari (masalan, DB4US va boshqalar) laboratoriya ma'lumotlari asosida sifat ko'rsatkichlari, testlar hajmi va resurslardan foydalanish indikatorlarini avtomatik hisoblash imkonini beradi. Ushbu tizimlar yashirin anomalialarni aniqlash va jarayonlarni optimallashtirishda samarali ekanini ko'rsatadi. Biroq mavjud ishlanmalar asosan test buyurtmalarini boshqarish yoki klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lib, ISO 9001 va ISO/IEC 17025 standartlari talablarini bandlar kesimida ball asosida baholash hamda ichki audit natijalarini vizual tahlil qilishga mo'ljallangan, yengil va moslashuvchan (Access sinfidagi) tizimlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar yetarli emas. Mazkur holat laboratoriya miqyosida moslashtirilgan, iqtisodiy jihatdan samarali va funksional axborot tizimini yaratish zaruratini asoslaydi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Taklif etilgan tizim Andijon viloyatidagi laboratoriyalar faoliyatini baholashga mo'ljallangan bo'lib, Microsoft Access platformasida yaratilgan ilovaga asoslanadi (frmAsosiy, frmBandlar va baholash subformasi). Ushbu tizim o'zaro bog'langan bir nechta asosiy komponentlardan tashkil topgan.

Ma'lumotlar qatlami.

Tizimning ma'lumotlar bazasi bir nechta asosiy jadvallardan iborat. Jumladan, “Laboratoriya” jadvali laboratoriya nomi, manzili, yuridik maqomi va qo'shimcha izohlarni o'z ichiga oladi. “Bandlar” jadvali esa



standart turi (ISO 9001:2015 yoki ISO/IEC 17025:2017), band raqami, bo'limi, band nomi, talab matni hamda laboratoriya tomonidan asoslovchi hujjatlar haqidagi ma'lumotlarni jamlaydi. "BaholashBand" jadvali band identifikatori, baholash identifikatori, ball, dalillar (audit jarayonida aniqlangan hujjatlar yoki amaliy jarayonlar) va ustuvorlik darajasini o'z ichiga oladi. Ushbu jadval baholash subformasi bilan bevosita integratsiyalashgan.

Ilova mantig'i.

Tizimning asosiy boshqaruv interfeysi frmAsosiy formasida (1-rasm) amalga oshiriladi. Mazkur formadagi "standart turi" tanlash elementi orqali laboratoriya nomi va tegishli standart turi belgilanadi. Tanlangan parametrlar asosida bandlar va baholash shakllari avtomatik ravishda filtrlanadi va foydalanuvchiga mos ko'rinishda taqdim etiladi.

Analitik modul.

Tizimda so'rovlar va hisobotlar mexanizmi orqali analitik hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Xususan, band, bo'lim va standart kesimida o'rtacha ballar, tayyorgarlik darajasi foizlarda, ustuvor kamchiliklar hamda laboratoriya portfeli bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar aniqlanadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va takomillashtirish choralarini asoslash imkonini beradi (1-rasm).

1-rasm. Microsoft Access dasturida ishlab chiqilgan ilovaning asosiy oynasi.



2-rasm. Dasturda ma'lumotlarni kiritish jarayoni sxemasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot doirasida Microsoft Access asosida ishlab chiqilgan axborot tizimi yordamida ikki laboratoriyada («XGZ» Andijon filiali va «YXZ» Andijon filiali) ISO 9001:2015 hamda ISO/IEC 17025:2017 standartlari talablari asosida ichki baholash o'tkazildi (1-jadval).



1-jadval. Standart bandlarini 0 dan 10 gacha balli shkala asosida baholash mezonlari.

Ball diapazoni	0–2 ball	4–6 ball	8–10 ball
Tavsifi	Talab deyarli bajarilmagan	Talab qisman bajarilgan	Talablarga yuqori darajada moslik mavjud

Mazkur yondashuv standart bandlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini miqdoriy ko'rsatkichlarga aylantirish hamda laboratoriyalarni o'zaro taqqoslash imkonini berdi.

Klinik laboratoriyalar uchun konsolidatsiyalashgan sifat indikatorlari tizimini ishlab chiqqan mualliflar indikatorlarni bo'limlar va jarayonlar kesimida strukturaviy taqsimlash laboratoriya sifatini kompleks baholashga xizmat qilishini ta'kidlaydi [13].

ISO 9001:2015 standarti bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikki laboratoriyada "Tashkilot konteksti" (4-bo'lim) hamda "Sifat siyosati" (5-bo'lim) bandlari nisbatan yuqori baholangan (masalan, 7–9 ball oralig'ida). Bu holat mazkur yo'nalishlarda siyosat hujjatlari va asosiy jarayonlar shakllanganini anglatadi. Biroq "Monitoring va o'lchash resurslari" hamda "Ichki audit"ga oid bandlar o'rtacha 5–6 ball darajasida baholangan bo'lib, ushbu sohalarida tegishli protseduralar mavjud bo'lsa-da, ularni amaliyotda izchil qo'llash hamda dalillarni tizimli ravishda yig'ish yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatadi.

ISO/IEC 17025:2017 standarti bo'yicha baholash natijalari esa o'lchash izchilligi, kalibrlash sertifikatlari hamda natijalarni tizimli qayd etish bilan bog'liq bandlar eng past ballarni olganini ko'rsatdi. Bu esa laboratoriyalarning texnik kompetentligini yanada mustahkamlash zarurligini tasdiqlaydi.

Microsoft Access tizimida shakllantirilgan so'rovlar yordamida bo'limlar kesimida o'rtacha ball, tayyorgarlik darajasi (foizlarda) hamda past baholangan bandlar soni hisoblab chiqildi. Xususan, «XGZ» laboratoriyasida ISO 9001:2015 standarti bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkich 6,8 ballni, «YXZ» laboratoriyasida esa 7,3 ballni tashkil etdi. Ushbu natijalar «YXZ» laboratoriyasida sifat menejmenti elementlari nisbatan yaxshiroq joriy etilganini ko'rsatsa-da, har ikkala laboratoriyada ham to'liq muvofiqlikka erishish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjudligini anglatadi.

ISO/IEC 17025:2017 standarti bo'yicha esa har ikkala laboratoriyada o'rtacha ko'rsatkichlar 5–6 ball oralig'ida qayd etilib, aynan texnik talablar bajarilishida muammolar ko'proq ekanini tasdiqlaydi (3-rasm).

Band Raqami	4.1
Bo'lim	4
Band Nomi	Tashkilot konteksti
Talab Matni	Laboratoriya faoliyatiga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar aniqlangan, hujjatlashtirilgan va davriy ko'rib chiqiladi.
Laboratoriya Asosi	LBR-P-01 "Laboratoriya boshqaruv tizimi" protsedurasida 4-bo'limi; risk va SWOT reyestrlari.
Standart Turi	ISO 9001:2015

Baholash Bar	Baholash ID	Ball	Dalil	Ustuvorlik			
1	1	8	Kontekst tahlili	O'rta			

3-rasm. Natijalarni kiritish oynasi.

SWOT tahlil natijalari ichki audit ballari bilan integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Kuchli tomonlar sifatida rahbariyatning sifat menejmenti tizimini joriy etishga bo'lgan qat'iy yondashuvi, xodimlarning nisbatan yuqori malakasi hamda mahalliy normativ hujjatlarga muvofiqlik qayd etildi [14].

Zaif tomonlar, avvalo, kalibrlash va texnik xizmat ko'rsatish hujjatlarining to'liqligi yetarli emasligi, ichki audit natijalarini chuqur tahlil qilish hamda to'g'rilovchi harakatlarni (CAPA) tizimli rejalashtirishdagi kamchiliklar bilan izohlanadi.

Imkoniyatlar sifatida milliy akkreditatsiya tizimini rivojlantirish, davlat dasturlari doirasida laboratoriya uskunalarini modernizatsiya qilish hamda xalqaro trening va malaka oshirish dasturlarida ishtirok etish imkoniyati ko'rsatildi.

Tahdidlar qatorida esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda kadrlar almashinuvi darajasining yuqoriligi qayd etildi (2-jadval).

2-jadval. Laboratoriya faoliyati bo'yicha SWOT tahlili

Kategoriya	Ichki/tashqi	Tavsif (laboratoriya misolida)	Bog'liq ISO bandi	Ustuvorlik darajasi
Kuchli tomonlar (S)	Ichki	Rahbariyat sifat menejmenti tizimini qo'llab-quvvatlaydi	ISO 9001:2015 — 5.1	Yuqori
	Ichki	Xodimlarning malaka darajasi yetarli	ISO 9001:2015 — 7.2	O'rta
Zaif tomonlar (W)	Ichki	Kalibrlash sertifikatlari va yozuvlar to'liq emas	ISO/IEC 17025:2017 — 6.4	Yuqori
	Ichki	Ichki audit natijalari tahlili muntazam amalga oshirilmaydi	ISO 9001:2015 — 9.2	Yuqori
Imkoniyatlar (O)	Tashqi	Milliy akkreditatsiya tizimini rivojlantirish dasturlari mavjud	ISO 9001:2015 — 4.1	O'rta
	Tashqi	Uskunalarini modernizatsiya qilish uchun grant imkoniyatlari mavjud	ISO/IEC 17025:2017 — 7	Yuqori
Tahdidlar (T)	Tashqi	Moliyaviy resurslar cheklangan	ISO 9001:2015 — 7.1	Yuqori
	Tashqi	Kadrlar almashinuvi darajasi yuqori	ISO 9001:2015 — 7.1.2	O'rta

3-jadval. SWOT tahlil va baholash natijalari o'rtasidagi bog'liqlik

ISO bandi	O'rtacha ball (0–10)	SWOT kategoriyasi	SWOT tavsifi	Taklif etilgan choralar (qaror)
ISO 9001:2015 — 4.1	7,5	S/O	Sifat siyosati va tashkilot konteksti tahlili mavjud	Kuzatuvni davom ettirish
ISO 9001:2015 — 9.2	5,0	W	Ichki audit natijalari yetarli darajada tahlil qilinmaydi	Audit rejasini qayta ko'rib chiqish, indikatorlar joriy etish
ISO/IEC 17025:2017 — 6.4	4,5	W/T	Kalibrlash hujjatlari to'liq emas, resurslar cheklangan	Kalibrlash rejasini ishlab chiqish, byudjetni rejalashtirish
ISO/IEC 17025:2017 — 7.2	6,0	O	Xalqaro treninglarda qatnashish imkoniyati mavjud	Trening rejasini ishlab chiqish

Mazkur jadval orqali SWOT tahlili elementlari 0–10 balli baholash tizimi bilan o'zaro bog'lanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Microsoft Access asosida ishlab chiqilgan baholash va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi axborot tizimi ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlari talablarini laboratoriya sharoitida bandlar kesimida miqdoriy baholash uchun amaliy va moslashuvchan platforma bo'lib xizmat qiladi. 0–10 balli shkalaning qo'llanilishi natijasida “talabni tushunish — hujjatlashtirish — amalda bajarish — monitoring va takomillashtirish” bosqichlari raqamli ko'rsatkichlarga aylantirildi hamda laboratoriyalar bo'yicha o'rtacha ball, minimal va maksimal qiymatlar, shuningdek bo'limlar kesimidagi tayyorgarlik darajalari aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv laboratoriya rahbariyatiga sifat menejmenti tizimini faqat “bor/yo'q” tamoyili asosida emas, balki uzluksiz rivojlanishga ega bo'lgan gradient spektr sifatida baholash imkonini berdi. ISO



9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 standartlari bo'yicha o'rtacha balli 5–6 oralig'ida qolayotgan bo'limlar (rejalashtirish, ichki audit, CAPA, kalibrlash, metrologik izchillik, usullarni validatsiya qilish) laboratoriya sifat menejmenti tizimida “ustuvor takomillashtirish zonalarini” sifatida belgilanishi hamda ular bo'yicha aniq muddat va mas'ul shaxslar ko'rsatilgan CAPA rejasini ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Microsoft Access asosidagi axborot tizimini kengaytirib, CAPA, risklar reyestri, kalibrlash jadvali hamda treninglar rejasini qamrab oladigan yagona elektron reyestrga aylantirish, ichki audit natijalari va tuzatish harakatlari siklini “rejalashtirish — amalga oshirish — tekshirish — ta'sir ko'rsatish” (PDCA) bosqichlari asosida avtomatik kuzatish imkonini yaratadi. ISO/IEC 17025:2017 standarti bo'yicha texnik kompetentlikni oshirish maqsadida ustuvor sinov usullari bo'yicha o'lchash noaniqligini hisoblash, usullarni validatsiya qilish hamda ichki nazorat natijalarini muntazam tahlil qilishga qaratilgan o'quv seminarlar tashkil etish, zaruratga ko'ra tashqi konsalting xizmatlari va kalibrlash laboratoriyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, laboratoriyalarda yiliga kamida bir marta to'liq ichki audit (ISO 9001:2015 va ISO/IEC 17025:2017 integratsiyalashgan chek-listlari asosida) o'tkazilishi, audit natijalari Microsoft Access tizimiga kiritilishi hamda bo'limlar kesimida o'rtacha ballar va SWOT tahlil natijalari asosida rahbariyat yig'ilishlarida tizimli muhokama qilinishi zarur. Tizimning kelgusidagi rivojlanishi doirasida Microsoft Access ma'lumotlar bazasi asosida web-interfeys yoki LIMS tizimlari bilan integratsiya imkoniyatlarini o'rganish, ko'p foydalanuvchili rejimni ta'minlash, ma'lumotlar xavfsizligini oshirish hamda tarmoqli laboratoriyalar uchun yagona boshqaruv platformasini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Organization for Standardization. (2015). *ISO 9001:2015 — Quality management systems — Requirements*. ISO.
2. International Organization for Standardization. (2017). *ISO/IEC 17025:2017 — General requirements for the competence of testing and calibration laboratories*. ISO.
3. Al-Shraideh, M. S., Al-Wedyan, H. O., Al-Ajlouni, A. M., & Al-Abdallat, Y. A. (2021). An approach for benchmarking service excellence in accredited laboratories using quality management models. *Ain Shams Engineering Journal*, 12(4), 3951–3963. <https://doi.org/10.1016/j.asej.2021.03.067>
4. Advisera. (2019-07-11). ISO 17025 vs ISO 9001: Main differences and similarities. <https://advisera.com/17025academy/blog/2019/07/11/iso-17025-vs-iso-9001-main-differences-and-similarities/>
5. Lundegårdh, G., & Holen, J. (2015). Integrating ISO 9001 and ISO/IEC 17025 in testing laboratories. *Accreditation and Quality Assurance*, 20(5), 391–398.
6. van der Bijl, J. J., & Broek, J. (2017). Risk-based thinking in ISO 9001:2015 and ISO/IEC 17025:2017. *Quality Engineering*, 29(4), 690–702.
7. Akyar, I. (2014). Quality in laboratory testing. *Journal of Medical Biochemistry*, 33(4), 347–354.
8. Lima-Oliveira, G., Lippi, G., Salvagno, G. L., Montagnana, M., & Plebani, M. (2012). Laboratory diagnostics and quality of the pre-analytical phase. *Biochimica Medica*, 22(3), 342–351.
9. Plebani, M. (2012). Quality indicators to detect pre-analytical errors in laboratory testing. *Clinical Biochemistry*, 45(12), 1035–1037.
10. Pillai, S. P., & Fox, E. (2025). Laboratory quality management system fundamentals. *Frontiers in Bioengineering and Biotechnology*, 13, 1578654. <https://doi.org/10.3389/fbioe.2025.1578654>
11. Plebani, M., & Laposata, M. (2020). Decision support systems in laboratory medicine. *Clinical Chemistry and Laboratory Medicine*, 58(7), 1045–1054.
12. 4CPL. (n.d.). How integrating ISO 9001 and ISO/IEC 17025 drives scalable laboratory growth. <https://www.4cpl.com/blog/how-integrating-iso-9001-and-iso-iec-17025-drives-scalable-laboratory-growth/>
13. Carmona-Cejudo, J. M., Hortas, M. L., Baena-García, M., Lana-Linati, J., González, C., Redondo, M., & Morales-Bueno, R. (2012). DB4US: A decision support system for laboratory information management. *Interactive Journal of Medical Research*, 1(2), e16. <https://doi.org/10.2196/ijmr.2126>
14. Vaitkaitienė, R., Činčikaitė, R., & Janušaitė, V. (2022). Consolidation of the quality indicator system for clinical laboratories. *Studies in Systems, Decision and Control*, 396, 51–71. https://doi.org/10.1007/978-3-031-09041-3_4
15. Alam, J. M. (2023). Quality in clinical laboratory III: Gap and SWOT analyses as tools for total testing process improvement. *Chemistry Research Journal*, 8(5), 16–20.
16. Kim, Y., Lee, J., & Park, H. (2022). SWOT analysis and expert assessment of the effectiveness of the healthcare information system in Korea. *Journal of Preventive Medicine and Public Health*, 55(5), 427–438. <https://doi.org/10.3961/jpmph.22.360>
17. Kang, J. T., & Kim, H.-J. (2023). QHFSS DNA laboratory — ISO/IEC 17025 conformance and implications for ISO/IEC 17011. *Forensic Science International: Synergy*, 7, 100288. <https://doi.org/10.1016/j.fsisy.2023.100288>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100